

## ZAMONAVIY PEDAGOG VA UNING BUGUNGI KUN QIYOFASI

**Pirmetova Shaxnoza Maqsudovna**

*Toshkent viloyati Chirchiq shahar3- UO‘TM MMIBDO‘*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola o‘quvchilarning fikrlash va dunyo qarashini oshirishda, axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlantirishga hamda mavjud muommalarga kreativ yondoshish masalalariga bag‘ishlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *intellektual, siyosiy, uzluksiz, davlat, nufuzini, kreativ, uslub, interfaol, kommunikativ, kompetensiyasi.*

Bugungi kunda jamiyatning taraqqiy etishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorligi mamlakat fuqarolarining intellektual, axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Jamiyatning ma’naviyyangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozoriqti sodiyotini shakllantirishda jahon ham jamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish masalasi ustuvor mezonidir.

Jahonda uzluksiz ta’lim tizimida didaktik yo‘nalishlar markaziga aylangan insoniy o‘yalar (personal ideas) o‘qituvchilarning nufuzini oshirish, motivatsiyasini rivojlantirish, kreativ qobiliyatlarini o‘stirish muhitini yaratishdir.

Hozirgi kun zamonaviy o‘qituvchisitarbiyalayotgan yoshavlodda aynan shunday sifat larni - iymon-e’tiqodimustahkam, iroda sibaquvvat, or-nomusli, izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirkorlik fazilatiga ega bo‘lgan, tashkilotchi, talabchan va qat’iyatli shaxslarni shakllantirish ilozim.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning ish uslubiva metodikalarini o‘rganilishini ta’jisi dabir qator ziddiyatli vaziyatlarmavjudligi, aynan: tabiiy fanlarga oid bilim va nazariyani formalo‘zlashtirish; pedagogik faoliyatda o‘quv jarayoniga yetarlichamo‘ljalolabilmaslik; mustaqil kasbiy faoliyati sust.

Chunonchi, o‘quv materialini o‘rganish, muammoni hal etish bo‘yicha turli variantdagi yechimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o‘quvchilarning hamkorligi har bir o‘quvchiga guruh muvaffaqiyati uchun o‘z ulushini qo‘shishga, ular o‘rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o‘zaro yordam muhitida sodir bo‘lganligi uchun, o‘quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki o‘zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko‘tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi.

Umumiy o‘rta ta’limda kimyo fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o‘quvchining ustunlik qilishi, uning o‘z fikrini o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi, o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallaydilar. Interfaol metodlarning fo‘llanilishi o‘quvchilarda, ayniqsa, kommunikativ, milliy va umummadaniy, axborot bilan ishlash kompetensiyasi shakllanishiga imkon beradi.

Shu bilan birgalikda kimyo fanini o‘qitishda o‘qituvchi metodlarning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq anglashi va o‘z o‘rnida samarali foydalanish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishi lozim.

Kimyo fanini o‘qitish jarayonida tanlangan o‘qitish metodlari kimyoga oid bilimlar va ko‘nikmalarni egallashni ta‘minlashi kerak. Kimyoning ko‘pgina mavzulari amaliy xarakterda bo‘lib, ularni faoliyat orqali hal qilish talab qilinadi. O‘quvchilar diqqatini nazariy bilimlarni o‘rganishga va maqsadni arziqli natijalarni qo‘lga kiritishga qaratish kerak, shuningdek, o‘quvchilardan muhim nazariy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, o‘z ustida mustaqil ishlashlari ham zarurligi talab etiladi. Nazariy bilimlarni eshitib o‘rganish orqali egallash xotira uchun ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi va yana o‘z-o‘zini boshqarish jarayonini buzadi. Shu sababli, o‘z-o‘zini boshqarishni va dars davomida o‘qitishni o‘zida jamlagan o‘qitish metodlaridan foydalanish juda muhim. Amaliy metodlarni qo‘llashning ijobiy natijalari shundaki, ular o‘quvchilarni tanqidiy o‘ylashga, rejalashtirishga, savollarga javob topishga, bahslashishga va yechim topishga ruhlantiradi.

Kimyo fanidan o‘quvchilarga chuqur va har tomonlama mukammal bilim berish, albatta, har bir bo‘lim va mavzuga tegishli bo‘lgan laboratoriya hamda amaliy mashg‘ulotlarni qanchalik o‘z o‘rnida va to‘g‘ri olib borilishiga bog‘liq.

Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, avvalo, o‘quvchilarning shu fandan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, turli sifat va miqdoriy reaksiyalarining rang va miqdor o‘zgarishi bilan borishi, cho‘kma tushishi va gaz ajralishi bilan boradigan tajribalar ularda fanga katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy.

Oksidlar mavzusida ham quyidagi tajribalarni bajarish tavsiya etiladi.

1- tajriba. Oddiy moddalardan oksid olish.

Misni qizdirish orqali mis (II)- oksidini olish.

Zarur jihozlar: qisqich, spirt lampasi.

Reaktivlar: mis sim.

Ishning borishi:

Mis simni qichqich bilan ushlab spirt lampasi alangasida qizdiriladi. Mis sim sekin-asta qoraya boshlaydi. Bu mis( II) –oksididir.



2-tajriba. Murakkab moddalardan oksid olish.

Mis (II) gidroksokarbonatni termik parchalab mis (II) oksidi va karbonat angidrid olish mumkin:

1. Qurilma yig‘iladi.

2. Probirkaga uning hajmining 1/3 qismiga mis (II) gidroksid karbonat kukuni solinadi, probirkani gaz chiqadigan nay bilan tiqin bilan yopiladi.


3. Gaz chiqadigan trubkani ohak suvili stakanga tushiriladi.

4. Probirka qizdiriladi.

Isitish probirkaning yuqori qismidan uning tubigacha bo‘lgan yo‘nalishda, barcha mis (II) gidroksid karbonat qora kukunga aylanguncha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.



qora kukun



ohakli suv loyqalanadi

Kimyoviy tajriba jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar kuzatishini tashkil qiladi, laboratoriya jihozlaridan foydalanishni ko‘rsatadi: o‘quvchilar diqqatini tajriba o‘tkazish sharoitlariga, uning maqsadga muvofiqligiga va ta‘sir asosiga hamda xavfsizlik texnikasiga jalb etadi.



Kimyoviy tajriba o‘ziga xos ko‘rgazmali qurol va qo‘llanma bo‘lib, nazariy bilimlarning mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi.

Kimyo fanini o‘qitishda tajribalardan foydalanish fanni amaliy jihatdan ahamiyatini oshiradi. O‘quvchilar darslikda berilgan ma‘lumotlarni isbotini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar. Bu esa fanning jozibadorligini, hayotiy va ahamiyatli fan ekanligini anglashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- o‘qituvchi o‘qitish texnologiyasini takomillashtirib, agar o‘quvchiga o‘zi nimanidir o‘ylab topishga yoki kashf etishga ruxsat berilsa, uning ijodiy faoliyati rivojlanib borishini yodda tutishi kerak;

- o‘quvchilar faoliyatini muvaffaqiyatli loyihalashtirishning muhim sharti - bu o‘qituvchining kasbiy mahorati va belgilangan maqsad doirasida o‘z-o‘zini tarbiyalashidir;

- kimyo darsida tajribalar bajarish faoliyatini samarali tashkil etish uchun tadqiqot jarayonini tashkil qilishning turli usullari va texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur.

- nazariy bilimlar hisob-kitoblar orqali mustahkamlashda masalalar yechishdan foydalanish: masalalar yechishda o‘z ishining natijalarini ko‘rgan o‘quvchilarda mamnuniyatni keltirib chiqaradi va ularga o‘zlarining tajribalarini va muayyan holatda boshqalar tajribasini o‘rganishga imkon beradi;

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. С.К.Икромова. 7-sinfda “oksidlarning olinishi va xossalari ” mavzusini o‘qitish metodikasi” .Битирув иши// Тошкент-2022. Б-50.
2. Е.Т.Турсунназарова. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida nomutaxassis o‘qituvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda mnemonika usullaridan foydalanish. P.f.f.d. diss..Toshkent-2022. B – 156.